

YUZDA AKNE VA YOG'LI YUZZLAR UCHUN SERUM ISHLAB CHIQISH TEKNOLOGIYASI

Husanova M. Sh¹, Turayeva S.S²

- 1.Samarqand sh. Zarmed Universiteti farmatsiya fakulteti 105-guruh talabasi.
- 2.Samarqand sh. Zarmed Universiteti Klinik oldi fanlar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Bugungi kunda yuzning yog'li terisini davolash ancha qiyin muammoga aylanib bormoqda. So'nggi paytlarda bu muammo ko'pincha balog'at yoshida kuzatiladi. Yuz yog'lanishi ko'pincha husunbuzar toshishiga sabab bo'ladi. Yog' bezlari faoliyatining buzulishiga olib keluvchi bir qancha sabablarni keltirish mumkin. Ya'ni gormonal o'zgarishlar, terini noto'g'ri parvarish qilish, yog'li ovqat va shirinliklarni me'yoridan ko'p iste'mol qilish, jigar faoliyatining buzulishi, stress, asab kasalliklari va boshq.

Kalit so'zlar: sholg'om, husunbuzar, yog'li teri, antioksidant, serum, texnologiya.

Sholg'om (*Brassica Rapa L.*) tarkibidagi S vitamini tananing himoyasini kuchaytiradi, turli infeksiyalar va viruslarga qarshi faollik ko'rsatadi. S vitamini kollagen sintezini rag'batlantirib tanadagi teri, tirnoq, tish, soch to'qimalarini mustahkamlashda yordam beradi.

Sholg'omda suv miqdori yuqori bo'lib, terini namlantiradi, qurib qolishdan saqlaydi. Sharbati tabiiy antiseptik va tozalovchi vosita sifatida ishlatiladi. Akne va yallig'lanishga qarshi yordam beradi. Shuning uchun sholg'omdan kosmetologiyada keng foydalaniladi.

Antioksidant faolligi bo'yicha sholg'om ko'pgina sabzavotlardan ustun turadi. Efir moyi tarkibida fenilpropen guruhi birikmalari: sismetil izoevgenol, trans-metil izoevgenol. Sholg'om bargida indol-3-karbinol flavanoidi mavjud.

Ilmiy ishning maqsadi. Ushbu ilmiy ishning maqsadi yuzni oziqlantiruvchi va aknega qarshi qo'llaniluvchi serum texnologiyasini ishlab chiqish.

Natija. Buning uchun sholg'om mevalari ko'p funksiyali Rabee RG-102 apparatida siqib olindi. Huddi shu siqgich apparatda aloe barglari ham siqib olindi. So'ngra infundir apparatida guruch talqon holiga kelguncha maydalab olindi. Hosil bo'lgan mahsulotlar bir xil massa hosil bo'lguncha aralashtirildi. Turg'unligini ta'minlash maqsadida nipazol eritmasidan qo'shildi.

Xulosa. Tadqiqot natijasida o'ziga xos hidli, tiniq serum hosil bo'ldi. Serumni sifatini aniqlash uchun tadqiqot natijalari olib borildi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mamatqulova S.A; Xoshimova S.M- Sholg'om o'simligining kimyoviy tahlili. INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF BIRUNI ISSN (E) 2181-2993 Vol. 1, Issue 2. Oct. (2022)
2. M.M. Mirolimov, X.Q. Abdullayeva, Z.Ya. Mamatmusayeva, N.A. Azimova. Farmatsevtik texnologiya asoslari fanidan amaliy qo'llanma. Toshkent.:Abu Ali ibn Sino, 2004.
3. Абдуллаев, Ш. В., Маматкулова, С. А., & Назаров, О. М. (2019). Компонентный состав экстрактов *Raphanus sativus L.* произрастающего в Узбекистане. *Universum: химия и биология*, (8 (62)), 29-31.